

**SDVMChBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası v.b. dotsenti, (PhD)
veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori U.A. Raxmonovning
“Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti 3-bochqich 301-302-303-
304 guruh talabalari uchun “Klinik diagnostika ” fanidan
“Siydik ajratish tizimini tekshirish” mavzusidagi ochiq ma’ruza dars
ishlanmasiga**

TAQRIZ

Klinik diagnostika fani bu veterinariya vrachini tayyorlash tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu fan qishloq xo‘jalik hayvonlari ichki yuqumsiz kasalliklari, veterinariya akusherligi, jarrohlik, epizootologiya kabi boshqa klinik fanlarning tayanch negizi hisoblanadi. Veterinariya vrachining barcha klinik ishlari ana shu fanga asoslanadi.

Shu boisdan mazkur fan veterinariya mediinasi ta’lim yo’nalishi bakalavlarni shakllantirishdagi ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad talabalarda sog‘lom va kasal hayvonlarni klinik tekshirish usullari yordamida tekshirish, olingan natijalarni tahlil qilish va kasalliklarga to‘g‘ri, aniq diagnoz quyish ko‘nikmalarini hosil qilish iborat.

Ushbu ma’ruza dars ishlanmasi fanning o‘quv va ishchi o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, uning tarkibida mavzuning maqsadi, o‘quv elementlari, ta’lim texnologiyalari, tayanch iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

Ma’ruza dars ishlanmasining asosiy qismida Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari, tekshirish tartibi va usullari, ahamiyati, siydik hosil bo‘lishi, Siydik chiqarishni va buyrakni tekshirish, siydik oquvchi kanalchalar va qovuqni, siydik chiqarish kanalini tekshirish; olingan ma’lumotlarni diagnostik ahamiyati hamda kateterizasiya, ayirish tizimi kasalliklari sindromatikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar batafsil bayon etilgan.

Bundan tashqari dars ishlanmasining asosiy qismi: anamnez ma’lumotlarini to‘plash, siydik chiqarishni tekshirish, buyrakni tekshirish, siydik oquvchi yo‘llarni tekshirish, qovuqni tekshirish, siydik chiqarish kanalini tekshirish, siydikni tekshirish usullari bayon etilgan.

Tayyorlangan ushbu ma’ruza darsining ishlanmasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun talablarigan mos keladi deb hisoblayman va o‘quv jarayonida qo‘llash uchun tavsiya yetaman.

**Samarqand viloyati veterinariya
va chorvachilikni rivojlantirish
boshqarmasi boshlig‘i v.b**

O.A.Baqoev

**SDVMChBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrası v.b. dotsenti, (PhD)
veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori U.A. Raxmonovning
“Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti 3-bochqich 301-302-303-
304 guruh talabalari uchun “Klinik diagnostika” fanidan
“Siydik ajratish tizimini tekshirish” mavzusidagi ochiq ma’ruza dars
ishlanmasiga**

TAQRIZ

Aholining sifatli va arzon chorva mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada yaxshiroq qondirish, malakali veterinariya mutaxassislarini tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lib, bu soha Davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan hisoblangan “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da o‘z ifodasini topgan.

Klinik diagnostika va rentgenologiya fanini yaxshi o‘zlashtirgan veterinariya vrachi bo‘lib shakllanishi uchun talaba kasalliklarning diagnostika, sabablari, rivojlanishi, asosiy simptomatikasi, kechishi, kasallik paytida kuzatiladigan patologoanatomik o‘zgarishlar, tekshirish usullari hamda samarali davolash va oldini olish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mukammal egallashi lozim.

U.A.Raxmonovning 6840100 – Veterinariya medisinasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Klinik diagnostika” fanidan “Siydik ajratish tizimini tekshirish” mavzusidagi ochiq ma’ruza dars ishlanmasi fanning o‘quv va ishchi o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, uning tarkibida mavzuning maqsadi, o‘quv elementlari, ta’lim texnologiyalari, tayanch iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

Ma’ruza dars ishlanmasining asosiy qismida Tizimning anatomo-fiziologik xususiyatlari, tekshirish tartibi va usullari, ahamiyati, siydik hosil bo‘lishi, Siydik chiqarishni va buyrakni tekshirish, siydik oquvchi kanalchalar va qovuqni, siydik chiqarish kanalini tekshirish; olingan ma’lumotlarni diagnostik ahamiyati hamda kateterizasiya, ayirish tizimi kasalliklari sindromatikasi, anamnez ma’lumotlarini to‘plash, siydik chiqarishni tekshirish, buyrakni tekshirish, siydik oquvchi yo‘llarni tekshirish, qovuqni tekshirish, siydik chiqarish kanalini tekshirish, siydikni tekshirish usullari to‘g‘risidagi ma’lumotlar batafsil bayon etilgan.

Bundan tashqari dars ishlanmasining asosiy qismida siydik ajratish tizimini tekshirish usullari (Umumiy va maxsus hamda laboratoriya usullari) to‘liq bayon etilgan.

Raxmonov Umid Azamatovich tomonidan tayyorlangan ushbu ma’ruza darsining ishlanmasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun talablarigan mos keladi deb hisoblayman va o‘quv jarayonida qo‘llash uchun tavsiya yetaman.

**“Ichki yuqumsiz kasalliklar”
kafedrası veterinariya fanlari
doktori, professori**

B.Bakirov